

“ALALIYA: BOLALAR NUTQIY RIVOJLANISHIDAGI SIRLI TO‘SIQ”**Ibragimova Durdona Dilmurod qizi***Alfraganus Nodavlat Universiteti**Maxsus pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.***Utbasarova Umida***Alfraganus Nodavlat Universiteti**Maxsus pedagogika kafedrası o‘qituvchisi.**durdonaibragimova873@gmail.com*

Annotasiya: Alaliya – bu bolalarda nutqning rivojlanishi kechikishi yoki to‘liq yo‘qligi bilan tavsiflanadigan nevrologik buzilishdir. Ushbu maqolada alaliyaning turlari, sabablari, tashxis qo‘yish usullari va samarali davolash usullari haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: alaliya, nutq rivojlanishi, nevrologik buzilish, nutq terapiyasi, miyofunksional terapiya.

Аннотация: Алалия - это неврологическое нарушение, характеризующееся задержкой или полным отсутствием развития речи у детей. В данной статье подробно рассматриваются виды алалии, её причины, методы диагностики и эффективные способы лечения.

Ключевые слова: алалия, развитие речи, неврологическое нарушение, логотерапия, миофункциональная терапия.

Abstract: Alalia is a neurological disorder in children characterized by a delay or complete absence of speech development. This article provides detailed information about the types of alalia, its causes, diagnostic methods, and effective treatment approaches.

Keywords: alalia, speech development, neurological disorder, speech therapy, myofunctional therapy.

Kirish

Alaliya (grekcha *a* – yo‘q, *lali* – nutq, gapiraman) – umumiy nutq rivojlanishining kattagina kamchiligi, fiziologik eshitish qobiliyati saqlangan holda gapira olmaslik, soqov bo‘lish. Bu nuqson nutqning batamom yo‘qligi yoki uning kam taraqqiy etganligi bilan xarakterlanadi. Olimlarning ta’kidlashicha, alaliya bosh miyaning chap sharidagi nutqni idora etuvchi zonalarining homiladorlik davrida yoki bolaning ilk yoshida jarohatlanishi, kam taraqqiy etganligi natijasida vujudga keladi, analizatorlarning faoliyati sekinlashadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, alalik bolalarning ba'zilarida jismoniy va aqliy rivojlanishi ham sekinlashadi. Bu hol ularni boshqa kamchiliklar bor bolalardan ajratib olishda qiyinchiliklarni tug'diradi.

Alalik bolalarda aqliy va boshqa kamchiliklar ikkilamchi hodisa sifatida vujudga keladi.

Bordiyu, alaliya barham topib, nutq tiklanadigan bo'lsa, ulardagi ikkilamchi hodisalar kamayadi yoki batamom yo'qolib ketadi. Maktabgacha yoshdagi alalik bolalarga maxsus nutq bog'chalarida o'z vaqtida to'g'ri yordam berib, tegishli choralar ko'rilsa, ular ommaviy maktabning birinchi sinfidan boshlab dastur materiallarini o'zlashtirishi va keyinchalik oliy o'quv yurtlarida ham o'qishini davom ettirishlari mumkin.

Gapira olmaslik serjahllikka, odamlarga aralashmaslik, parishonxotirlikka, ruhan qiynalish va boshqa noxush fazilatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Alalik bola gapirishni istamaydi, bunga qiziqmaydi. O'z istaklarini bildirishda imo-ishoralardan keng foydalanadi, 4–5 yashar bola 1–2 yashar bolaga o'xshab, so'zlarni chala, o'zgacha, qisqartirib talaffuz etadi (ashsha, umma, bi-bi), undovlarni keng ishlatadi. Ayrim alalik bolalar bidirlaydi, tovush va tovush birikmalarini ongsiz sur'atda avtomatik ravishda talaffuz etadi, exilogiya (aks-sado nutqi) kuzatiladi, ularning lug'ati nihoyatda kambag'al, agrammatik bo'ladi.

Alalik bolalarning butun nutq sistemasi, ya'ni barcha tomonl fonetik-fonematik, leksik va grammatik komponentlari rivojlanmagan bo'ladi. Shartli ravishda alaliyani motor va sensor turga bo'lish mumkin. Biroq alaliya ning sof holdagi bir turi amaliyotda kamdan-kam kuzatiladi. Motor-sensor yoki senso-motor turlari ko'proq uchrab turadi. Motor alaliyada nutq a'zolarini harakatga keltiruvchi analizator jarohatlanganligi tufayli bola o'zi gapira olmaydi, lekin atrofdagilar nutqini eshitadi va tushunadi.

Sensor alaliyada esa nutqini idrok etish analizatorlarining faoliyati buzilganligi tufayli, bolaning nutq apparati yaxshi rivojlangan bo'lsa ham, u ga-pirmaydi.

Kar-soqov bolalarning fiziologik eshituv layoqati rivojlanmaganligi tufayli ular nutqdan boshqa tovushlarni ham eshitmaydilar, ularning ovozi yo'q yoki nihoyatda past bo'ladi. Alalik bolalarda esa ovoz kuchli bo'lib, ular imo-ishora qilganlarida ma'lum tovush yoki tovush birikmalarini jarangli ovoz bilan aytadilar.

Kar-soqov bolalarning qulog'idagi, jumladan quloq ichida joylashgan vestibulator apparatidagi nuqsonlar ularning umumiy yurish-turishi, qadam tashlashiga ta'sir etsa, alalik bolalarda bunday kamchiliklar kuzatilmaydi.

Qulog'i og'ir bolalar ovozlarni umuman eshitmaydigan yoki kam eshitadigan bo'lsa, alalik bolalar nutqda tashqari tovushlarni yaxshi eshitadi. Alalikning ovozi jaranglagan, tiniq; qulog'i og'ir bolalarning ovozi esa jarangsiz, kuchsiz bo'ladi.

Alalik ko'p hollarda umuman gapirmaydi, qulog'i og'ir bola esa o'z faoliyatida nutqdan foydalanadi. Albatta, qulog'i og'ir bola nutqi o'zgacha grammatik qoidalariga to'g'ri kelmaydigan, ko'p xatoli bo'lsa ham, bola o'z fikrini nutq orqali bayon etishga harakat qiladi. Alalik bolalar oligofren bolalardan o'zining ongi, idrokliligi bilan ajralib turadi. Ular o'zini atrof-muhitga muvofiqlashtirib, mos ravishda, ya'ni adekvat tutsalar, oligofren soqov bolalar nihoyatda og'ir, ongsiz bo'ladi. Alaliyani og'ir asabiy-ruhiy shikastlanishlar natijasida paydo bo'lgan vaqtincha so'qovlik – mutizmdan ham ajrata bilish kerak.

Qattiq qo'rqish, hayajonlanish natijasida bola 3–4 kun gapir-masligi mumkin. Biroq bu hol vaqtincha bo'lib, keyinchalik bola yana gapirib ketadi. Ayrim kar-soqov ota-onalarning kichik yoshdagi bolalarida kuzatiladigan soqovlik ham alaliyadan keskin farq qiladi. Ijtimoiy-psixologik sabablardan kelib chiqqan soqovlik isterik bolalarda nutq negativizmi tufayli, ya'ni gapirishni xohlamaslikka aloqador bo'ladi.

Bunday bolalar o'ziga yoqqan kishilarga gapi-radi, yoqmagan kishilarga esa mutlaqo gapirmaydi. Bularni ham alalik bolalardan ajrata olish kerak.

Artikulatsion a'zoldagi qo'pol o'zgarishlar ham, masalan, til, lab falaji soqovlikka sabab bo'lishi mumkin. Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan nuqsonlarni iloji boricha barvaqt ajratib, bolalarni tegishli maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya olishi ni ta'minlash nihoyatda muhim.

Afsuski, hozirgi kunda hali ham ayrim alalik bolalar maxsus nutq bog'chalari, maktablarga yuborilmasdan, balki aqli zaif bolalar uchun, qulog'i og'ir, kar-soqov bolalar maktablari va bog'chalariga tushib qolmoqdalar. Alaliya, mediko-psixologik-pedagogik, ya'ni kompleks, bolaga har tomonlama ta'sir ko'rsatish, uning nutqi va tafakkurini o'stirishga qaratilgan korreksiya chora-tadbirlari orqali izchillik bilan, uzoq vaqt davomida bartaraf etiladi.

Alaliyani bartaraf etish yo'llari, usullari nuqsonning turi, darajasi, kechishiga qarab har bir bola uchun individual tarzda belgilanadi.

V. K. Orfinskaya, L. V. Melexovalarning fikricha, korreksion ishlarni bola 3–4 yoshga to'lganda boshlash maqsadga muvofiqdir, chunki bu yoshda bolaning qiziqishi, faolligi, ishlash uchun zarur bo'lgan onglilik, ish qobiliyati, o'z kamchiliklarini seza olish kabi fazilatlarini rivojlangan bo'ladi.

Izchillik bilan olib boriladigan kompleks korreksion ishlar alalik bolada nutqiy faoliyat mexanizmlarining tarkib topishi, nutqiy kommunikatsiya, ya'ni aloqa bog'lash va fikr yuritish vositasi sifatida shakllantirib borishga qaratiladi.

Logopedik ishlar alalikning lug'at boyligini oshirish, nutqning grammatik tomonini shakllantirish, tovushlar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish, so'z va gaplarni tuzishga o'rgatish, fonematik uquvini rivojlantirish, yozma nutqni o'zlashtirishga tayyorlashni ko'zda tutadi.

3–4 yil mobaynida muntazam olib boriladigan kompleks korreksion ishlar, ko‘p hollarda bolaning umumiy, aqliy, nutqiy rivojlanishini bir qadar ta‘minlash va alaliyani to‘liq bartaraf etib, bolaning ommaviy maktab dastur-larini o‘zlashtira olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratish mumkin.

Chala tug‘ilganlik

TORCH-sindrom (infektsiyalar)

Perinatal patologiya

Asfiksiyalar (nafas olishning buzilishi)

Onadagi kasalliklar

Irsiy moyillik:

Nutq kam rivojlangan bolalarda ko‘pincha miyaning nutq sohalariga ta‘sir qiluvchi irsiy omillar kuzatiladi.

Asosiy etiopatogenetik omillar:

Raxit

Meningitlar

Gipotrofiya

Ensefalitlar

Endokrin buzilishlar

Bosh miya jarohatlari

Yetarli darajada rivojlanmaganlik

Alaliyaning belgilari:

Motor alaliya:

Harakat,koordinatsiyasida qiyinchiliklar

Oddiy vazifalarni bajarishda noqulayliklar (masalan, poyabzal iplarini bog‘lash, tugmalarni qadash)

Nutqiy belgilar:

Agrammatizmlar (grammatik xatolar)

Tovushlarni buzish

Nutqning kech paydo bo‘lishi

Bo‘g‘inlar tuzilishining buzilishi

Kichik lug‘at boyligi

Fonematik jarayonlarning buzilishi

Davolash usullari:

Nutq terapiyasi:

Nutq terapevtlari bolalarda talaffuz va nutqni yaxshilashga yordam beradi, ularning nutq zonalarini faollashtirish va til ko‘nikmalarini shakllantirish uchun turli mashqlarni qo‘llaydi.

Miyofunksional terapiya (MFT):

Yuz mushaklarining muvozanatini tiklashga qaratilgan. Bu terapiya bolalarning og'iz va yuz mushaklarini mustahkamlaydi va til shakllanishini osonlashtiradi.

Uy sharoitida mashqlar:

Muntazam kitob o'qish

Bola bilan sodda va tushunarli til orqali savol-javob qilish Jag' mushaklarini mustahkamlash va chaynash harakatlarini rivojlantirish uchun turli xil ovqat teksturalarini tavsiya qilish.

Nutqning rivojlanmay qolishi uning sensor yoki motor tomonlarining buzilishlaridan kelib chiqadi.

Ko'pincha ikkala funksiya ham buzilgan bo'ladi. Nutqning rivojlanmay qolishi sabablariga homilalik davridagi turli salbiy ta'sirlar, tug'ilish jarohatlari va asfiksiya bola tug'ilganidan so'ng nutq markazlarining jarohatlanishlari kiradi. Motor alaliyada faol lug'at mustaqil ravishda shakllanmaydi yoki juda sekin shakllanadi.

Alalik bolalar faol nutqdan foydalanish zarur bo'lmagan topshiriqlarni bajonidil bajaradilar. Bunday bolalar rivojlanishdan seziladi, ravishda orqada qoladilar.

Ularning tushunchalari va tasavurlari chegaralangan bo'ladi.

Ba'zi bolalarda aqliy rivojlanishning sustlashishi yaqqol ifodalangan nutq nuqsonlari bilan birgalikda keladi.

Logopedik mashg'ulotlar natijasida alalik bolalarning nutqi rivojlana boshlaydi. Ammo lug'ati, ayniqsa faol lug'at sekinlik bilan ko'payadi. Nutqda aggramatizmlar kuzatila boshlaydi. Keyinchalik ta'limda muammolar, qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Nutqida sensor buzilishlar ustun bo'lgan bolalarni tashxis qilish juda murakkab. Bunday bolalar nutqni tushunmaydilar. Natijada nutqiy aloqa qiyinlashadi bu esa o'z navbatida bolaning aqliy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi.

Mutaxassis bilan uzoq vaqt davom etgan mashg'ulotlardan so'ng bolalarda nutqga reaksiya, keyin esa mustaqil talaffuz qilishga intilishlar paydo bo'ladi. Dastlabki mashg'ulotlarda bolalar nutqi alohida tovush biriqlaridan, ba'zan qisqa so'zlardan iborat bo'ladi. Lug'at sekinlik bilan kengayadi. Tashxis qilishdagi qiyinchiliklar xarakteri sababii ba'zan nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar aqli zaif bolalarga almashtirib yuboriladi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishda ko'rgazmali qurollar maksimal darajada foydalanish juda muhim.

Ularga bajarishda boladan faol nutq talab etilmaydigan topshiriqlarni tavsiya etish lozim. Shu tarzda bolada bilim, tasavurlar, o'yinni mustaqil tashkil etish va h.k.lar aniqlanadi. Motor alalik bolalarda nutq buzilishlarini tashxis etish katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Alohida hollarda nutqning rivojlanmay qolishi aqliy faoliyatning rivojlanmaganligi bilan birgalikda kelishi mumkin.

Olimlarning ta'kidlashicha, alaliya bosh miyaning chap yarim sharidagi nutqni idora etuvchi zonalarining homiladorlik davrida yoki bolaning ilk yoshida

jarohatlanishi, kam taraqqiy etganligi natijasida vujudga keladi, analizatorlarning faoliyati sekinlashadi.

Alalik bolalarning butun nutq sistemasi, ya'ni barcha tomonlari: fonetik fonematik, leksik va grammatik komponentlari rivojlanmagan boladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, alalik bolalarning ba'zilarida jismoniy va aqliy rivojlanish ham sekinlashadi. Bu hol ularni boshqa kamchiliklari bor bolalardan ajratib olishda qiyinchiliklarni tug'diradi. Alalik bolalarda aqliy va boshqa kamchiliklar ikkilamchi hodisa sifatida vujudga keladi. Gapira olmaslik serjahillikka, odamlarga aralashmaslik, parishonxotirlikka, ruhan qiynalish va boshqa noxush fazilatlamining kelib chiqishiga sabab boiishi mumkin. Alaliya barham topib, nutq tiklanadigan boisa, ulardagi ikkilamchi hodisalar kamayadi yoki batamom yo'qolib ketadi. Alalik bolalar oligofren bolalardan o'zining ongi, idrokliligi bilan ajralib turadi. Logopediya fanida alaliyaning turli xil tasniflari mavjud. Shartli ravishda alaliya motor va sensor turga bo'linadi.

Nutqning rivojlanmay qolishi uning sensor yoki motor tomonlarining buzilishlaridan kelib chiqadi. Ko'pincha ikkala funksiya ham buzilgan bo'ladi. Nutqning rivojlanmay qolishi sabablariga homilalik davridagi turli salbiy ta'sirlar, tug'ilish jarohatlari va asfiksiya bola tug'ilganidan so'ng nutq markazlarining jarohatlanishlari kiradi. Motor alaliyada faol lug'at mustaqil ravishda shakllanmaydi yoki juda sekin shakllanadi. Alalik bolalar faol nutqdan foydalanish zarur bo'lmagan topshiriqlarni bajonidil bajaradilar. Bunday bolalar rivojlanishdan sezilaydi, ravishda orqada qoladilar. Ularning tushunchalari va tasavurlari chegaralangan bo'ladi. Ba'zi bolalarda aqliy rivojlanishning sustlashishi yaqqol ifodalangan nutq nuqsonlari bilan birgalikda keladi. Logopedik mashg'ulotlar natijasida alalik bolalarning nutqi rivojlana boshlaydi.

Ammo lug'ati, ayniqsa faol lug'at sekinlik bilan ko'payadi. Nutqda aggramatizmlar kuzatila boshlaydi. Keyinchalik ta'limda muammolar, qiyinchiliklar yuzaga keladi. Nutqida sensor buzilishlar ustun bo'lgan bolalarni tashxis qilish juda murakkab. Bunday bolalar nutqni tushunmaydilar. Natijada nutqiy aloqa qiyinlashadi bu esa o'z navbatida bolaning aqliy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Mutaxassis bilan uzoq vaqt davom etgan mashg'ulotlardan so'ng bolalarda nutqqa reaksiya, keyin esa mustaqil talaffuz qilishga intilishlar paydo bo'ladi. Dastlabki mashg'ulotlarda bolalar nutqi alohida tovush birikmalaridan, ba'zan qisqa so'zlardan iborat bo'ladi.

Lug'at sekinlik bilan kengayadi. Tashxis qilishdagi qiyinchiliklar xarakteri sababii ba'zan nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar aqli zaif bolalarga almashtirib yuboriladi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishda ko'rgazmali qurollar maksimal darajada foydalanish juda muhim. Ularga bajarishda boladan faol nutq talab etilmaydigan topshiriqlarni tavsiya etish lozim. Shu tarzda bolada bilim, tasavurlar, o'yinni mustaqil tashkil etish va h.k.lar aniqlanadi. Motor alalik bolalarda nutq

buzilishlarini tashxis etish katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Alohida hollarda nutqning rivojlanmay qolishi aqliy faoliyatning rivojlanmaganligi bilan birgalikda kelishi mumkin.

Bu holatni bolani maxsus nutq maktablarida uzoq vaqt olib borilgan ish natijasida aniqlash mumkin. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni davlat ta'lim muassasalariga yo'llash tartibi to'g'risidagi nizom":

Ushbu hujjat jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va maktab internatlariga yo'llash tartibini belgilaydi. Nizomga muvofiq, psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar (PTPK) alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tekshiradi va ularni tegishli ta'lim muassasalariga yo'naltirish bo'yicha xulosa beradi.

Xulosa: Alaliya – bu bolalarda nutqning to'liq yoki qisman rivojlanmasligi bilan tavsiflanadigan jiddiy nutq buzilishi bo'lib, u bosh miya po'stlog'ining nutq markazlari shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu nutq buzilishining sabablari prenatal, perinatal va postnatal omillar bilan bog'liq bo'lib, u asosan nevrologik asosga ega. Alaliya ekspressiv (ifodali) va reseptiv (tushunish) shakllarga bo'linadi. Ekspressiv alaliya bilan bolalar so'z boyligi va gap tuzish qiyinchiliklarini boshdan kechiradilar, reseptiv alaliyada esa ular so'z va iboralarni tushunishda muammolarga duch keladilar. Tashxislash jarayonida nevrolog, logoped va psixologning kompleks baholash usullari qo'llaniladi. Alaliyani tuzatish va davolashda logopedik mashg'ulotlar, psixokorreksiya, farmakologik terapiya va uy sharoitida doimiy nutqiy rag'batlantirish muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, erta tashxis va to'g'ri terapiya orqali alaliyaning salbiy ta'sirlarini kamaytirish va bolaning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash mumkin. Shuning uchun, alaliya bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning kasbiy yondashuvi va ota-onalarning doimiy qo'llab-quvvatlovi bolaning nutqiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Orfinskaya V.K., Melexova L.V. (2003). Alaliya: Diagnostika va korreksiya metodlari. Moskva: Pedagogika nashriyoti.
2. Luria A.R. (1966). Nutq va miya faoliyati. Moskva: Nauka.
3. Levina R.E. (1951). Bolalar nutqining rivojlanishidagi buzilishlar va ularni tuzatish metodikasi. Leningrad: Prosveshchenie.
4. Torsunov G.A. (2010). Logopediya asoslari: Nutq buzilishlarini tashxislash va davolash. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi (2018). Logopedik yordam ko'rsatish bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent.
6. Vygotskiy L.S. (1983). Bola rivojlanishi va nutq. Moskva: Pedagogika.

Internet manbalari:

1. WHO (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti)